O'zbek tilida zamon ifodalovchi grammatik shakllarning boshqalaridan farqlanuvchi bevosita kuzatganlik yoki bilvosita xabar topganlik, statik yoki dinamik harakat-holatlar uchun xoslanganlik, subyektni tavsiflash, nutq momentiga bilvosita bog'lanish kabi xususiyatlariga dair xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan FZ-202004165 raqamli "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 24-noyabrdaqi 01-3229-sonli ma'lumotnomasi). Natijada platforma zamon shakllarining turli nutqiy vaziyatlarda qo'llanilishiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlangan.

Zamon shakllarining nuqtda faollik darajasi har xilining og'zaki yoki yozma nuqtda uchrashi, badiiy uslub uchun xoslanganligi, tarixiylashayotganligi haqidagi ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali "O'zbekiston" radiosi orqali e'ftra uzatilgan radiomuloqotning 21-oktabr – O'zbek tili bo'yami kamiga bag'ishlangan seminar tuzilishida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2022-yil 15-noyabrdaqi 04-32-1127-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu eshitirish mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari yuzasidan 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Disertatsiya mavzusi bo'yicha joni 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi xalqaro, 4 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Disertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Disertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Disertatsiyaning umumiy hajmi 159 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tamlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, muammoni o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning

ishonchilligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobativiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzatishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobini "**Zamon kategoriyasining nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlangan. Bobning "Jahon tilshunosligida zamon kategoriyasining talqini" deb atalgan 1.1. faslida qadimgi davrdan o'rganilishi bezlangan zamonning tilshunoslikda turli davrlarda shakllangan maktablarning yo'nalish va nuqsadlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etilganligi, zamonning umumiy modellari xususida ma'lumotlar berilgan. Jahon tilshunosligidagi ko'plab tadqiqotlarda zamonning vaqtli tilida voqelantirishga xizmat qiluvchi grammatik, leksik, sintaktik vositalar bir butunligi — yaxlit temporal kategoriya sifatida o'rganilishi an'anaga aylangan. H. Reichenbach ikki mara zamon chizig'ida uch nuqta mavjudligi, bu nuqtalarning joylashuv ketma-ketligiga ko'ra turli zamon ma'nolari ifodalantirishni tushuntirib berdi¹⁶. U o'ziga cha bo'lgan grammatikaga oid manbalardagi bir-biriga yaqin zamonlar (masalan, Simple past (Oddiy o'tgan zamon) va Present perfect (Tugallangan hozirgi zamon) ma'nosini tushuntirishdagi muammolarni ayuan mana shu nuqtaning uch nuqtasini farqlamaslik natijasi, deb biladi. Olim uch nuqta sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Nuqta nuqtasi (Point of speech - S).
2. Voqea-bodisa nuqtasi (Point of event - E).
3. Ishora nuqtasi (Point of reference - R).

Oltay tillaridagi fe'l zamonlarini maxsus o'rganagan I. Kormushin tizimida mutlaq va nisbiy zamonlarni ajratadi. Olimning fikricha, o'tgan, hozirgi, kelasi zamonlar mutlaq zamonlar bo'lib, ularning bir-biri bilan munosabatidan nisbiy zamonlar kelib chiqadi. Jumladan, mutlaq o'tgan zamondan uch nisbiy zamon hosil bo'ladi: o'tgan zamonga nisbatan o'tgan zamon, o'tgan zamonga nisbatan hozirgi zamon, o'tgan zamonga nisbatan kelasi zamon. Xuddi shu tartibda hozirgi va kelasi mutlaq zamondan ham uchta nisbiy zamon hosil bo'ladi. Shunday qilib, olim oltay tillari uchun uch mutlaq va to'qqizta nisbiy — jami o'n ikkita zamondan iborat tizimni tavsiya etadi¹⁷. Bizningcha, I. Kormushinning mazkur yondashuvi garchi tizimlilikka asoslanmagan, barcha oltay tillari uchun to'liq tatbiq etib bo'lmaganligi bois keng ommalashmagan.

Grammatik zamoni turli sathlar hamkorligida o'rganish uning mohiyatini yanada aniqroq ochilishiga sabab bo'lgan. O'z navbatida, ko'pchilik tadqiqotchilar foronidan bu temporal maydonda fe'lning grammatik zamon shakllari markaziy o'rinni egallashi ta'kidlangan. Bugungi kunda mazkur kategoriyani tilshunoslikning hankor sohalarini psixolingvistik, neyroolingvistika, korpus lingvistikasi, lingvokulturologiya kabi fanlar nuqtayi nazaridan o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Birinchi bobning 1.2. fasli "**Korpus lingvistikasida zamoni annotatsiyalash masalasi**" deb nomlangan. Bu faslda jahon va o'zbek korpus lingvistikasida zamoni shakllarini annotatsiyalash, ularning modellari yaratish yuzasidan amalga oshirilgan

ishlar va bu beradagi muammolar tahlil qilingan. Jahonda zamon kategoriyasini modellashirish formal grammatikani yaratish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lib, bu masala kompyuter lingvistikasining mashina tarjimasini, matnning avtomatik tahlili kabi amaliy yo'nalishlari uchun ham muhim ahamiyatga ega edi. Keyinchalik katta hajmli til korpuslarining yuzaga kelishi matnlaridagi axborotlarning zamon bilan bog'liq xususiyatlarini avtomatik tahlil qilish texnologiyalarining ham takomillashuviga olib keldi. Matn tarkibidagi vaqt ma'noli birliklarni aniqlash va ularni annotatsiyasida TIMEX, TIMEX 2, TIDE, TIMEX 2, STAG (Sheffield Temporal Annotation Guidelines) kabi tegrash asmalaridan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik Jeyms Pastojovskiy tomonidan ularning integratsiyasi natijasida fe'l zamonlarini aniqlovchi, shuningdek, bir nechta harakat va holatlar o'rtasidagi zamonga oid munosabatlarni izohlay oluvchi TimeML, ISO-Time ML sxemalari tashlab chiqildi.

Buyuk Britaniyada G. Marsik tomonidan zamon ma'nosini anglatuvchi so'zlar, fe'l zamonlari, harakat-holatlarning zamon bilan aloqador munosabatlari, umuman, matnning zamon bilan bog'liq xususiyatlarini avtomatik annotatsiyalash masalasi monografik tarzda o'rganilgan¹⁸. Ushbu tadqiqot tabiiy tilga avtomatik ishlov berish yo'nalishida bo'lib, ingliz tili matnlarini misolida zamon kategoriyasining kompleks tahlili amalga oshirilgan. Matnning obyektiv vaqt bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganishda nafaqat fe'l zamonlari, balki fe'llarning leksik va morfologik aspektlari, payt ehlari va ravishlari, vaqt ma'noli bog'lovchilarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Turkiy tillar morfologiyasining avtomatik tahliliga bag'ishlangan ishlardan analiz jaroyatini grammatik lug'at, so'zshakl modeli va morfologik qoidalarga asoslanishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Morfsintaktik qoidalar doirasida qo'shimchaning asosga biriktirishdagi muayyan qoidalar, shuningdek, asos xususiyatidan kelib chiqib allomorflardan mosirning tanlanishi (masalan, -gan o'tgan zamon shaklining k udoshti bilan tugagan asoslarga -kan, q undoshi bilan tugagan asoslarga -qan tarzida qo'shilishi) nazarda tutiladi. Shuningdek, turkiy tillarning avtomatik morfologik tahlil tizimlari uchun FST (Finite state transducer) kompyuter modelidan keng foydalaniladi.

O'zbek korpus lingvistikasida ham zamon shakllarini annotatsiyalash yuzasidan filchlar morfologik tegrash, morfomalizator ishlab chiqish masalalari doirasidagi tadqiqotlarda biddirilgan. Sh. Hamroyeva "O'zbek tili morfologik analizatorning lingvistik to'lmavi" mavzusidagi dissertatsiyasida o'zbek tili morfomalizatori uchun grammatik kategoriyalarni o'zbek tili qonuniyatlarini asosida qat'iy belgilash lozimligini ta'kidlab, o'zbek tilidagi 11 ta grammatik kategoriyani, jumladan, zamon kategoriyasini ham ko'rsatib o'tadi¹⁹. Dissertatsiyada morfologik razmetka, morfomalizatorlarning lingvistik ta'minoti yuzasidan ma'lumotlar keltirilib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning umumiy tamoyillari belgilab beriladi.

S. Muhamedova harakat fe'llari va ularning valentlik imkoniyatlari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'min yaratish usulida ish olib borgan. Ishda

¹⁶ M. Reichenbach, *Elementary Principles of Syntactic Logic* (The Elements of Syntax) — New York: The Macmillan Company, 1947, p. 237-238.

¹⁷ Kormushin I. *Corpus lingvistikasida zamoni annotatsiyalash* — M.: Hayat, 1984 — C. 6-7.

¹⁸ Marsik G. *Temporal processing of news: annotation of temporal expressions, verbal events and temporal relations. A theory submitted to partial fulfillment of the requirements of the University of Wolverhampton for the degree Doctor of Philosophy* — Wolverhampton, 2011 — 349 p.

¹⁹ Hamroyeva Sh. *O'zbek tili morfologik kategoriyalari* — Tashkent: Fan va adabiyot, 2001 — E. 156.

fe'llarning grammatik shakllari qabul qilishiga ulardagi lug'aviy ma'noning ta'siri ham ko'rsatib o'tilgan²².

M.Ajabalova o'zbek tili matnlarining avtomatik tahlili va tahriri bo'yicha amalda oshirgan tadqiqotida tahlilning morfologik bosqichi doirasida zamon shakllariga ham to'xtaladi²³. Olima o'lgan zamon uchun 13 ta, hozirgi zamon uchun 6 ta, kelasi zamon uchun 9 ta shaklni ajratib ko'rsatadi. Sh.Hamroyeva, O'Xoljiyov, G.Abdullimovalar tamonidan tuzilgan "Fe'l shakllari lug'at"da zamoning o'zida 49 ta, variantlari bilan esa 66 ta shakl mavjudligi qayd etiladi²⁴.

N.Abdurasmonovning "O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modelirlari" nomli monografiyasida qoidaga asoslangan, ehtimolga asoslangan va gibrid asosli teglash usullari haqida ma'lumot berilib²⁵, O'zbek tili korpusi (uzbekcorpus.uz)ga asoslangan holda fe'lga xos 26985 ta kombinatsiya hosil qilinishi haqida ma'lumot beriladi.

Bobning 1.3. fasil "O'zbek tilidagi zamon shakllarining tasniflashi" deb nomlangan. O'zbek tilidagi zamon shakllarining grammatik shakllari va ularning tasnifi eng muvazirali masalalardan biri bo'lib kelgan. Formal-ovsifiy metod asosida amalga oshirilgan ishlarda zamonni anglatuvchi grammatik shakllar aniqlandi va ularning har xil natijalar qo'llanishidagi ma'nolari izohlandi. Tishunov A.Hojiyev zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning to'yxat va ularning tasnifidagi turli-tamanlikka e'tibor qaratadi: "Turli darajali va qo'llanmalar, ayrim monografiyalari, shuningdek, qiyosiy planidagi ishlardan tashqari o'zbek tilidagi fe'l zamonlari temasi bo'yicha to'rtta kandidatek dissertatsiyasi yoqilandi. Biroq har bir zamon formasining o'ziga xos xususiyati haqidagina emas, hatto hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning qaysi zamon qanday formalarga ega ekanligi haqida ham shu vaqtga qadar bir xil fikrga kelinagan emas"²⁶. Tishunov o'zining mazkur mulohazalari bugun ham o'z kuchida turibdi. Masalan, A.Sulaymonov "Fe'l zamonlari" kitobida o'lgan zamon hosil qiluvchi 24 ta invariant simetrik va analitik shaklni ko'rsatgan²⁷. A.Hojiyev "O'zbek tili grammatikasi" (1975) da 10 ta shunday shaklni qayd etadi²⁸. A.G'ulomovning "Fe'l" risolasida o'lgan zamon shakllari sari 7 ta²⁹, 1966-yilda chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfologiya)" darsligida esa ularning sari 12 tani tashkil etadi³⁰. Boshqa zamon shakllari inqidorida ham shunday bir xilliklar kuzatiladi. Bizningcha, buning asosiy sabablaridan biri o'zbek tilida zamon va mayl kategoriyalarining chambarchas bog'liqligida va grammatik shakllarning ham zamon, ham mayl ma'nosini ifodalashida ko'rinadi. Sistem-struktur yondashuvda esa zamon shakllaridagi isoniy va natqiy jihatlari farqlandi, turli natqiy ma'nolar

²² M.Yunusov, "Xarakteristik shakllar asosida zamonlar tuzilishini aniqlashga yozilgan muvazirlik", *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²³ Ajabalova M., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²⁴ "Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfologiya)", *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²⁵ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²⁶ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²⁷ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²⁸ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

²⁹ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

³⁰ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

amallashirildi. Xususan, O'Zikrillayev³¹, B.Mengliyev³², Sh.Shahobiddinova³³, N.Musulmonova³⁴ kabi olimlarning ishlari zamon shakllarining umumiy ma'nosini ochish va natqiy qo'llanishlarida bu umumiy ma'noning ma'lum bir qirralarining xususiy ma'no sifatida voqetlanishi masalalarini tahlilga tortildi.

Bizningcha, natq momenti (N), ishora vaqt (I), harakat-holat vaqti (H)ning munosabatidan kelib chiqib zamon shakllarining tasnifi quyidagicha amalga oshirish mumkin:

I. O'lgan zamon shakllari:

1.1. N>I-H strukturasi ifodalaydigan o'lgan zamon shakllari: -di, -b (-bb), edi.

1.2. N>I>H strukturasi ifodalaydigan o'lgan zamon shakllari: -gan (-kan, -qan)

1.3. N>I>H strukturasi ifodalovchi o'lgan zamon shakllari: -gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-bb edi).

1.4. N>I<H strukturasi ifodalaydigan davomli o'lgan zamon shakllari: -r edi (-ar edi), -yugan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqta edi.

II. Hozirgi zamon shakllari:

II.1. N=I-H strukturasi ifodalovchi umumiy hozirgi zamon shakllari: -a (-y), -yotib (-ayotib), -yotir (-ayotir), -moqda, -yotgan. Shuningdek, *yurmoq, turmoq, o'tirmoq, yotmoq* fe'llarining ko'makchi fe'l va holat fe'li sifatida hozirgi zamon ma'nosida qo'llanilishi.

II.2. N=I<H strukturasi ifodalovchi davomli hozirgi zamon shakllari: -yap, -yotib (-ayotib), -yotir (-ayotir), -moqda, -yotgan. Shuningdek, *yurmoq, turmoq, o'tirmoq, yotmoq* fe'llarining ko'makchi fe'l va holat fe'li sifatida hozirgi zamon ma'nosida qo'llanilishi.

III. Kelasi zamon shakllari:

III.1. N<I=H strukturasi ifodalovchi kelasi zamon shakllari: -a (-y), -r (-ar), -yugan (-ayotgan), -ajak (-ayotak), -gay (-kay, -qay)

Shuningdek, kelasi zamonda ham natija va davomiylik ma'nolari ifodalaniishi mumkin. Bu ma'nolar -gan/-kan/-qan, -ayotgan shakllari va bo'l fe'li yordamida yuzaga keltiriladi. Bunda natija ma'nosi uchun -gan/-kan/-qan shaklidan so'ng kelgan bo'l fe'lga kelasi zamoni ifodalovchi -a, -ar shakllari qo'llaniladi. Kelasi zamondagi natija ma'nosini N<I=H strukturasi orqali ifodalash mumkin. Kelasi zamondagi davomiylik ma'nosi uchun esa -ayotgan shaklidan so'ng kelgan bo'l fe'lga kelasi zamoning -a, -ar shakllari qo'llaniladi. Harakat-holatning natq momentidan keyin boshlab, ishora vaqtida davom etib turganligi ma'nosi anglatiladi. Bunda zamon N<I<H strukturasi ega bo'ladi.

"Zamonni annotatsiyalash darajalari" deb nomlangan ikkinchi bobning 2.1 fasil "Zamonni annotatsiyalashning grammatik darajasi" deb ataladi. Zamonni ifodalovchi grammatik shakllar gapping natq momentiga munosabati belgilashda birilmechi va eng muhim vosita hisoblanadi. Zamon shakllarning o'zbek

³¹ Zikrillayev O., *Yozma*, 1995, № 1, s. 40-41.

³² Mengliyev B., *Yozma*, 1995, № 1, s. 40-41.

³³ Shahobiddinova S., *Yozma*, 1995, № 1, s. 40-41.

³⁴ Musulmonova N., *Yozma*, 1995, № 1, s. 40-41.

³⁵ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

³⁶ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

³⁷ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

³⁸ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

³⁹ Abdurasmonov N., *Yozma*, 2006, № 1, s. 40-41.

tilshunosligida amalga oshirilgan ta'riflarini umumlashtirgan holda 2-, 3- va 4-jadvallarda keltirilgan birliklarni zamon grammatik shakllari sifatida qabul qildik. Quyidagi etish joizki, keltirilgan zamonni ifodalovchi shakllarning tilda faollik darajasi har xil. Ayrin shakllar juda keng iste'molda bo'lgani holda, ba'zi shakllar faqat muayyan bir uslub, janr doirasidagina qo'llaniladi. Bu jarayonlarni kuzatishda va xolis baholashda til korpuslarining ahamiyati juda katta. Internet tarmoq'iga joylangan, bugun amalda foydalanilayotgan ba'zi til korpuslari matnlarida zamon shakllarning qo'llanilish ehtimosini tahlil qildik. Tahlillarimizda, asosan, hozirgi kunda tishanun ko'proq so'z bazasiga ega bo'lgan O'zbek tilining ta'limiy korpusi (uzschoolcorpora.uz) matnlariga tayandik. Natijalar mazkur korpus matnlarida o'tgan zamon shakllari 4363937 marta (56%), hozirgi zamon shakllari 2854941 marta (36%), kelasi zamon shakllari 613617 marta (8%) uchrasini ko'rsatdi.

Bobning 2.2. faoli "Zamonni annotatsiyalashning semantik darajasi" deb nomlanib, unda zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni qabul qilishda va zamon ma'nosini ifodalashda fe'l leksik ma'nosining ta'siri tahlil qilinadi. Jahon tilshunosligida bu masala fe'larni aspektual guruhlariga ajratish orqali hal qilinadi. O'zbek tilshunosligida fe'l zamonlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda bu masalaga alohida e'tibor qaratilmagan. Faqat hozirgi zamon doirasida *yo'lmoch*, *yurmoq*, *turmoq*, *o'tirmoq* fe'llarning -ib shakli bilan o'ziga xos tarzda mazmunan hozirgi zamonni ifodalashi masalasiga gina to'xtalangan. Biz leksik ma'nosiga ko'ra zamon shakllarini qabul qilishda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan fe'llarni quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratdik:

1. Bir lahzaalik harakat-holatning oxirgi natijasini ifodalovchi fe'llar: *topmoq*, *yo'qotmoq*, *pasqonmoq*, *qo'qilmoq* (o'zbek misolida), *chertmoq*, *uzg'otmoq*, *tanimoq*, *chalgatmoq*, *sinamoq* kabi.
2. Davomiylikni ifodalovchi holat fe'llari: *yurmoq*, *turmoq*, *yo'lmoch*, *o'tirmoq*, *ishlamoq*, *nafratlanmoq* kabi fe'llar.
3. Statik holat mazmunini ifodalovchi fe'llar: *sevinmoq*, *bilmoq*, *xursand bo'lmoq*, *ishlamoq*, *nafratlanmoq* kabi fe'llar.
4. Jismoniy harakatlarni ifodalovchi fe'llar: *boramoq*, *ketmoq*, *yurmoq*, *chopmoq*, *qaytmoq* kabi fe'llar.

Bir lahzaalik harakat-holatlarni ifodalovchi fe'llar davomiylik mazmuniga ega bo'lmaydi. Ular zamon o'qida muayyan bir nuqtani ko'rsatuvchi, qisqa lahzaalik harakat-holatlarni ifodalaydi va davomli zamon shakllari bilan qo'llanmaydi. Biroq ko'p ma'noli fe'llar bir ma'nosi bilan davomli zamon shaklini qabul qilmagani holda boshqa ma'nosi bilan bu shakllarni olavertishi mumkin. Masalan, *topmoq* fe'li "O'zbek tilining izohli lug'atidagi" 1) Yo'qotgan, umuman, qidirilayotgan (qidiruvda bo'lgan) narsa yoki shaxsni duch keltirmoq, ko'zga ilintirmoq, uchratmoq, 2) Nugahton ko'zi tushib qo'lga kiritmoq, topib olish¹⁰, ma'nolari bilan davomli zamonida ishlatilmaydi. Lekin lug'atdagi "3 Qidirish, kuzatish, izlanish batijasida kashf etmoq, ochmoq, 4 Noma'lum bo'lgan narsani aniqlamoq, nima ekanini belgilamoq, taxmin etmoq, 5 Umuman, ish-mehnat, biror sabab va-sh.k. bilan ega bo'lmoq, erishmoq"¹¹ ma'nolari bilan davomli zamon shakllarini qabul qilavermi.

Jumladan, Ta'limiy korpusdagi matnlarida *topmoq* fe'li hozirgi davomli zamon shakllari bilan 839 o'rinda uchraydi va ularning barchasida izohli lug'atdagi 3-, 4-, 5- ma'nolari bilan birin ifodalangan. Masalan: *Ilmniy tarqoqlar orqali hokimlik va boshqaruv idoralari qo'llanilayotgan ma'ruzalarda o'z yechimini topmoqmi? O'quv-senayirida shu kabi masalalar muhokamalar markazida bo'ldi.* (85 uz.). Alohida qayd etish joizki, bu turdagi fe'llar bo'lishsizlik shaklida qo'llanganda qisqa lahzaalik harakat ma'nosi yo'qoladi va davomiylikka ega bo'ladi. Shu bois ular bo'lishsizlik shakli bilan hozirgi davomli zamon shakllarini qabul qilishi mumkin. Masalan: *O'zbekistonda ham savodli mutaxassislar juda ko'p. Ularni hech kim puyqatmayapti.* (kin.uz)

turmoq, *yurmoq*, *yo'lmoch*, *o'tirmoq* fe'llarining -ib shakli bilan hozirgi zamonni anglatishi ularning leksik ma'nosini bilan bog'liq bo'lib, ular holat fe'li, ko'makchi fe'li bo'lganda davomiylik ma'nosini ifodalaydi. Harakat ma'nosini bildirganda esa -ib shakli bilan o'tgan zamon ma'nosini anglatadi. Ta'limiy korpus matnlarida mazkur fe'llarning -ib qo'shimchasini olib shaxs-sonda tushlangan holatlaridan anglashiladigan zamon ma'nosini tahlil qildik. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks etgan¹².

T/r	Fe'l shakli	O'tgan zamon ma'nosida		Hozirgi zamon ma'nosida	
		Soni	Foizi	Soni	Foizi
1	yur+ib+shaxs-son	34	2%	1509	98%
2	tur+ib+shaxs-son	45	0,2%	24183	99,8%
3	o'tir+ib+shaxs-son	4	0,5%	849	99,5%
4	yot+ib+shaxs-son	12	0,8%	1427	99,2%
	Jami	95	0,3%	27968	99,7%

Jadvaldan ko'rinadiki, keltirilgan fe'l shakllari bugungi kunda o'tgan zamon ma'nosida juda kam ishlatiladi.

Ikkinchi bobning 2.3. fasli "Zamonni annotatsiyalashning kontekstual darajasi" deb nomlangan. O'zbek tilshunosligida zamon shakllarning qo'llanilishida kontekstning ahamiyati zamonlarning ko'chishi, zamonlarning ustubiy xususiyatlari kabi mavzular ostida qisman o'rganilgan. Bu borada A.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, M.Sodiqova, J.Abdullajonova kabilarining izlanishlari muhim ahamiyatga ega. Zamonlarning ko'chishida grammatik shakl kontekst ta'sirida uzul ma'nosiga ko'ra mansub bo'lgan tasnifdan tashqariga oqibishi va boshqa bir zamon ma'nosini ifodalashi e'tiborga olinadi. Masalan, -di shakli kontekst ta'sirida nutq momentiga eng yaqin nuqtadagi kelasi zamonidagi harakat-holatlarni ham ifoda etishi mumkin. Nutqimizda tez-tez uchraydigan "Bo'pti, men ketdim" tarzidagi gapda qo'llangan *ketdim* so'zida ketish harakati nutq momentidan keyin yuz beradi va tahlilda uni kelasi zamonidagi fe'l sifatida ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Misoldagi *ketdim*

¹⁰ S. Guliyeva, 2012-yilning 1-iyulidagi 12-krizisga bo'lgan ehtiyoj oshirgani
¹¹ T. Nigmatov A. Qo'qil - To'qimov - Qo'qil, 1954 - b. 33, Xonitov A. Qo'qil - To'qimov, 1971 - b. 118, Ilyayeva U. 300ga yuzasidan qisqa mahalliylikni muhokama - To'qimov, 1976, - b. 160 G. Guliyeva M. Qisqa mahalliylik - To'qimov, 1975, - b. 21-29, Abdullajonova J. Qisqa mahalliylikni muhokama - To'qimov, 1975, - b. 101-102.

¹² S. Guliyeva, 2012-yilning 1-iyulidagi 12-krizisga bo'lgan ehtiyoj oshirgani
¹³ Ko'rsatilmagan lug'at - b. 146-149.

so'zshaklining aynan kelasi zamonning \rightarrow qo'shimchasi bilan ifodalangan *kelasiga* nisbatan ma'noviy farqlanishi ham mavjud bo'lib, *kelasim* kelasi zamonida y'uz beradigan harakatning muq momentiga eng yaqin ekanligini ifodalaydi.

Disseratsiyaning uchinchi bobi "**O'zbek tilidagi zamon shakllari annotatsiyasi**" deb nomlangan. Uning 3.1. fasli "Zamon shakllari annotatsiyasida morfotaktik qoidalar" deb ataladi. Zamon shakllarini annotatsiyalash jarayonida ularning asosga, o'zidan oldingi va o'zidan keyingi qo'shimchaga birlashish imkoniyatlari – morfotaktik qoidalar alohida ahamiyat kash etadi. Ayniqsa, ommonim va polissemantik grammatik shakllarning ma'nosini so'zning pozitsiyasi hisobiga avtomatik farqlash ko'p hollarda morfotaktik qoidalar asosida amalga oshiriladi. Zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning fe'l kesim tarkibida joylashuvi quyidagi umumiy model asosida belgilanadi:

Fe'l tomma + nisbat shakli + [bo'lishsizlik shakli] \rightarrow zamon shakli + [shaxs-son shakli] + yuklama.

Modeldagi til birliklarini o'zbekcha nomiga aloqador holda bo'yo'natishdagi oldingi ishlarda⁸ berilgan sharti belgilar bilan ifodaladik, ya'ni fe'l lemmani "F", nisbat shaklini "N", bo'lishi/bo'lishsizlik shaklini "BB", zamon shaklini "Z", shaxs-son shaklini "Sh" bilan belgiladik. Modellar tarkibida ayrim qismlarning qatnashishi qat'iy qoida bo'lsa, ayrim qismlarning tushib qolish ehtimoli bor. Modellar so'zining ko'payib ketishini oldini olish maqsadida tushib qolish ehtimoli mavjud bo'lgan grammatik shakllarni ifodalaydigan belgi oldidan 1 ishorasi qo'yildi. Annotatsiyasida zamon shakli haqidagi ma'lumot qisqartirilgan sharti belgilarda ifodalandi. O'zbek korpus lingvistikasidagi ma'lumotlarda o'lgan zamon ma'nosini uchun "Z1", hozirgi zamon uchun "Z2", kelasi zamon uchun "Z3" belgilaridan foydalanib kelinadi. Zamon uzumiga kiruvchi har bir shakl va uning allomorflari, shuningdek, variantlari ham alohida-alohida sharti belgisiga ega bo'lishi lozim. Grammatik shaklning allomorflari "al" qisqartmasi bilan, qo'shib yoki ajratilib yoziladigan variantlari "var" qisqartmasi bilan berildi. Qavs ichida keltirilgan dastlabki raqam o'lgan zamon grammatik shaklning tartib raqamini, "al" qisqartmasidan keyingi raqam allomorflarning raqamini, "var" qisqartmasidan keyingi raqam esa grammatik shakl variantining raqamini ifodalaydi.

"O'lgan zamon shakllari annotatsiyasi" deb nomlangan 3.2. faslda o'lgan zamonning har bir grammatik shakli bir-biridan farq qiluvchi belgilar asosida izohlanadi, har bir shakl uchun sharti belgilar birlashtiriladi. O'lgan zamon grammatik shakllarning ko'pligi va ularning manzar tarkibida qo'llanilish chastotasining yuqorligi bilan boshqa zamonlardan ajralib turadi. O'lgan zamoni ifodalovchi grammatik shakllar soni 11 ta bo'lib, allomorflari va variantlari bilan ularning soni 28 taga yetadi (2-jadval).

8. Boshqaruq M.A. Sifatli (zamon) shakllari (shakllari) o'zbekcha nomiga aloqador holda bo'yo'natishdagi oldingi ishlarda berilgan sharti belgilar bilan ifodaladik, ya'ni fe'l lemmani "F", nisbat shaklini "N", bo'lishi/bo'lishsizlik shaklini "BB", zamon shaklini "Z", shaxs-son shaklini "Sh" bilan belgiladik. Modellar tarkibida ayrim qismlarning qatnashishi qat'iy qoida bo'lsa, ayrim qismlarning tushib qolish ehtimoli bor. Modellar so'zining ko'payib ketishini oldini olish maqsadida tushib qolish ehtimoli mavjud bo'lgan grammatik shakllarni ifodalaydigan belgi oldidan 1 ishorasi qo'yildi. Annotatsiyasida zamon shakli haqidagi ma'lumot qisqartirilgan sharti belgilarda ifodalandi. O'zbek korpus lingvistikasidagi ma'lumotlarda o'lgan zamon ma'nosini uchun "Z1", hozirgi zamon uchun "Z2", kelasi zamon uchun "Z3" belgilaridan foydalanib kelinadi. Zamon uzumiga kiruvchi har bir shakl va uning allomorflari, shuningdek, variantlari ham alohida-alohida sharti belgisiga ega bo'lishi lozim. Grammatik shaklning allomorflari "al" qisqartmasi bilan, qo'shib yoki ajratilib yoziladigan variantlari "var" qisqartmasi bilan berildi. Qavs ichida keltirilgan dastlabki raqam o'lgan zamon grammatik shaklning tartib raqamini, "al" qisqartmasidan keyingi raqam allomorflarning raqamini, "var" qisqartmasidan keyingi raqam esa grammatik shakl variantining raqamini ifodalaydi.

I.	O'lgan zamon shakllari	Sharti belgisi
I.1	-di	Z1(1)
I.2.1	-b	Z1(2.al1)
I.2.2	-ib	Z1(2.al2)
I.3.1	-gan	Z1(3.al1)
I.3.2	-kan	Z1(3.al2)
I.3.3	-qan	Z1(3.al3)
I.4	edi	Z1(4)
I.5.1.1	-gan edi	Z1(5.al1.var1)
I.5.1.2	-gandi	Z1(5.al1.var2)
I.5.2.1	-kan edi	Z1(5.al2.var1)
I.5.2.2	-kandi	Z1(5.al2.var2)
I.5.3.1	-qan edi	Z1(5.al3.var1)
I.5.3.2	-qandi	Z1(5.al3.var2)
I.6.1	-b edi	Z1(6.al1)
I.6.2	-ib edi	Z1(6.al2)
I.7.1.1	-r edi	Z1(7.al1.var1)
I.7.1.2	-rdi	Z1(7.al1.var2)
I.7.2.1	-ar edi	Z1(7.al2.var1)
I.7.2.2	-ardi	Z1(7.al2.var2)
I.8.1.1	-yotgan edi	Z1(8.al1.var1)
I.8.1.2	-yotgandi	Z1(8.al1.var2)
I.8.2.1	-ayotgan edi	Z1(8.al2.var1)
I.8.2.2	-ayotgandi	Z1(8.al2.var2)
I.9.1	-yotib edi	Z1(9.al1)
I.9.2	-ayotib edi	Z1(9.al2)
I.10.1	-yotir edi	Z1(10.al1)
I.10.2	-ayotir edi	Z1(10.al2)
I.11	-moqda edi	Z1(11)

O'lgan zamon shakllari doirasida 50 ta model ishlab chiqildi. Masalan, -di shakli uchun quyidagicha izoh, modellar shakllantirildi:

-di shakli. O'lgan zamonning ushbu shakli qo'llanilish chastotasiga ko'ra eng faol bo'lib, muq momentidan oldin yuz bergan, so'zbochi tomondan bevosita kuzatilgan harakat-holatlar ifodasi uchun qo'llanadi. Ushbu shakl orqali hozirgi va kelasi zamon ma'rolari ham ifodalaniishi uning polissemantik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, shaxs-son ma'nosini anglanuvchi -di shakli bilan ommonimik munosabatga kirishadi. -di zamon shaklning uchinchi shaxsda ham zamon, ham shaxs-son ma'nosini ifodalab kelish holati hoki, modellashtirishda bunga ham alohida e'tibor qaratish joiz. Bu holatlarning modellar orqali farqlab berilishi avtomatik tahlil sifatini oshiradi uchun xizmat qiladi.

Quyidagi modellar orqali -di zamon shakli va -di shaxs-son qo'shimchasi orasidagi ontomiyani farqlash, shuningdek, uchinchi shaxsda -di zamon shaklning shaxs-son ma'nosini ham anglatish holatini modellashtirish mumkin.

a) agar -di shaklidan so'ng shaxs-son qo'shimchasi kelsa, -di o'lgan zamon shakli bo'ladi, ya'ni:

$$F+ \downarrow N+ \downarrow BB+di+Sh \text{ bo'lsa, "di"}=Z1(1)"; \text{Masalan: } \textit{bordim}$$

b) agar -di shaklidan oldin -(y)h, -a, -y, -(a)yo'tib zamon shakllari kelsa, -di shaxs-son qo'shimchasi bo'ladi, ya'ni:

$$F+ \downarrow N+ \downarrow BB+(1)h/a/y/(a)yo'tib+di \text{ bo'lsa, "di"}=Sh2"; \text{Masalan: } \textit{bo'rtib, yozadi, o'qiydi}$$

d) agar -di shaklidan oldin -(1)h, -a, -y, -(a)yo'tib zamon shakllari kelmasi va undan so'ng grammatik shakl yo'q bo'lsa yoki -lar shakli kelsa, yoki yuklama kelsa, -di zamon va shaxs-son ma'nosini anglatadi, ya'ni:

$$F+ \downarrow N+ \downarrow BB+di+O'lar/yuklama \text{ bo'lsa, "di"}=Z1(1) \text{ va } Sh". \text{Masalan: } \textit{o'qidi, yozsirmadilar, bo'rdim.}$$

-di shaklining kontekst ta'sirida kelasi zamonni anglatish holatlarining ayrimlarini modellashtirish imkoni bor. Model tuzilishidan oldin grammatik shaklning muayyan birlikda tarkibida qo'llanilishiga oid misollar yig'ildi, misollardan anglatilgan zamonlarning ulushi aniqlandi va ularni umumlashtira oladigan qolip ishlab chiqildi. Masalan, Ta'limiy korpus matnlarida -di shakli ravishdosh bilan birga qo'llangan *nima qilidin/nima qiladi* birkimasi tarkibida 97% holatda kelasi zamon ma'nosini anglatadi va uni modellashtirish mumkin:

Agar -(1)h shaklidagi ravishdoshdan so'ng *nima qilidin/nima qiladi* birkimasi kelsa, -di shakli kelasi zamon ma'nosini anglatadi, ya'ni:

$$F+ \downarrow N+(1)h+nima \text{ qil+di+ni/nima qil+di+k bo'lsa, "di"}=Z3"$$

Bobning "Hozirgi va kelasi zamon shakllari annotatsiyasi" deb nomlangan. 3.3 faslida 3-jadvalda keltirilgan hozirgi zamon shakllari uchun 22 ta, 4-jadvalda keltirilgan kelasi zamon grammatik shakllari uchun 15 ta model ishlab chiqildi.

II		Hozirgi zamon shakllari		Shartli belgisi	
II.1.1	-y			Z2(1.a1)	
II.1.2	-a			Z2(1.a2)	
II.2	-yap			Z2(2)	
II.3	-menda			Z2(3)	
II.4.1	-yotib			Z2(4.a1)	
II.4.2	-yo'tib			Z2(4.a2)	
II.5.1	-yotir			Z2(5.a1)	
II.5.2	-yo'tir			Z2(5.a2)	
II.6.1	-yotgan			Z2(6.a1)	
II.6.2	-yo'tgan			Z2(6.a2)	
II.7.1	-yidigan			Z2(7.a1)	
II.7.2	-odigan			Z2(7.a2)	
II.8	yarib			Z2(8)	
II.9	tarib			Z2(9)	
II.10	yo'tib			Z2(10)	
II.11	o'tirib			Z2(11)	

3-jadval

III		Kelasi zamon shakllari		Shartli belgisi	
III.1.1	-y			Z3(1.a1)	
III.1.2	-a			Z3(1.a2)	
III.2.1	-f			Z3(2.a1)	
III.2.2	-ar			Z3(2.a2)	
III.3.1	-ydigan			Z3(3.a1)	
III.3.2	-adigan			Z3(3.a2)	
III.4.1	-yajak			Z3(4.a1)	
III.4.2	-qjak			Z3(4.a2)	
III.5.1	-gay			Z3(5.a1)	
III.5.2	-kav			Z3(5.a2)	
III.5.3	-qsy			Z3(5.a3)	

4-jadval

Hozirgi zamon nutq momentiga to'g'ri kelganligi sababli boshqa zamonlarni belgilashda asos vazifasini bajaradi. Hozirgi zamon grammatik shakllari nafaqat harakatning davomiyligini dinamik xarakterda ifodalaydi, balki umumun statik tarzda nutq momentida amalda bo'lib turgan, subyektlarning doimiy xususiyatlarini bildiruvchi holatlarni ham anglatadi. Quyida hozirgi zamon shakllari orasida ham, kelasi zamon shakllari orasida ham qo'llanilish chastotasi eng yuqori bo'lgan -a/-y shaklning annotatsiyasi haqida to'xtalib o'tuniz. Hozirgi zamonning -a/-y shakli orqali nutq momentida amalda bo'lib turgan, takroriy analigi ostib turgan, statik mavjud bo'lgan, shuningdek, subyektlarning doimiy xususiyatlarini, odaty tartib-qoidalarni bildiruvchi harakat-holatlar ifodalanadi. -a/-y shakli bilan hozirgi zamon ma'nosini (fodabanganda fe'l asosidan ko'proq harakat ma'nosini emas, balki holat va faoliyat ma'nosini anglatiladi).

-a/-y shaklning fe'l tarkibida hozirgi zamon ma'nosini anglatish holatini annotatsiyalashda bu shaklning omonimik va polisemantik xususiyatlarini hisobga olish tabiiydir. -a/-y orqali fe'l so'z turkumi doirasida hozirgi zamon shakli, kelasi zamon shakli, fe'lning lug'aviy tarz shakli, ravishdosh shakli yasalishi mumkin.

-a/-y shaklning ravishdosh yoki hozirgi zamon shakli hosil qilishini, shuningdek, -y shaklning buyruq-istak mavlini hosil qilish holatini farqlashda shaxs-son qo'shimchalari filtr vazifasini bajaradi. Agar -a/-y shaklidan so'ng shaxs-son qo'shimchalari qo'shilsa, u holda -a/-y hozirgi zamon shakli hisoblanadi, aks holda -a/-y ravishdosh yoki -y buyruq-istak mavli shakli bo'ladi.

$$\text{Agar } F+ \downarrow N+ \downarrow BB+ \text{y}+ Sh2 \text{ bo'lsa, u holda "y"}=Z2(1.a1)";$$

$$\text{Agar } F+ \downarrow N+ \downarrow a+ Sh2 \text{ bo'lsa, u holda "a"}=Z2(1.a2)";$$

Ta'limiy korpus matnlarida -a/-y shaklning zamon qo'shimchasi vazifasida qo'llanilishini tahlil qilganimizda, uning ko'proq hozirgi zamon ma'nosini uchun qo'llanilganligini kuzatdik (75%). Kelasi zamon ma'nosini esa asosan gap tarkibidagi bu zamonga ishora qiluvchi maxsus lug'aviy birlıklar ta'sirida ifodalangan (25%). Demak, muqдор jihatdan -a/-y shakli orqali hozirgi zamon ma'nosini ifodalashning ustuvorligini hisobga olib, modellashtirishda -a/-y bilan kelasi zamon ma'nosini (fodalanishini) bu zamonga ishora qiluvchi maxsus kalit so'zlarga bog'lab qo'yish mumkin. M. Hakimova kelasi zamonni ifodalovchi payt ravishlari statusiga eraga.

endi, endilikda, endigina, keyin, keyincha, so'ng, so'ngro, halizamon lektsiyalarini kiritadi¹⁰. Shuningdek, yuqorida tizda, tez orada kabi payt ma'noli lektsiyalar ham a-y shaklining kelasi zamon ma'nosida kelishiga ta'sir o'tkazadi. Ularni umumlashtirib kelasi zamonga ishora qiluvchi birtiklar (KZIQB) ro'yxatini shakllantirish mumkin.

Kelasi zamonga ishora qiluvchi birtiklar (KZIQB)=ertaga/endi/endilikda/endigina/keyin/keyincha/so'ng/so'ngro/halizamon /yuqorida/tez orada/tezda.

KZIQB + F⁻¹ N + 1BB + y + Sh2 bo'lsa, u holda "y=Z3(1.a1)"

KZIQB + F⁻¹ N + a + SH2 bo'lsa, u holda "y=Z3(1.a2)"

Ayrim fe'l asoslariga a-1 zamon shaklining qo'shilishi natijasida boshqa bir fe'l lemma bilan shakldo'shlik yuzaga keladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"¹¹ dagi quyidagi 25 ta fe'l da dastur fe'l lemmani noto'g'ri belgilashi natijasida zamon shaklini aniqlashda ham xatoga yo'l qo'yishi mumkin: *bezadi, buradi, emadi, oshadi, qonadi, sinadi, vovadi, so'radi, to'radi, to'padi, tuzadi, tuzadi, tuzadi, to'radi, to'radi, to'radi, uzadi, voradi, yutadi, o'radi, o'tadi*. Bunday fe'l larga a-1 zamon shaklidan so'ng -di shaxs-son qo'shimchasining qo'shilgan holati bilan shakldo'shlikni yuzaga keltirgan ikkinchi fe'l lemmaga -di o'lgan zamon (shaxs-son ma'nosini ham bildiradi) shaklining qo'shilgan holatini kontekst yordamida aniqlash mumkin emas. Bu muammo sementik analizator yordamida kontekstda fe'l lemmaning boshqa tokenlarga birlashtirish imkoniyatiga qarab hal qilinishi mumkin.

XULOSA

1. Jahon tilshunosligida maunda ifodalangan zamoning obyektiv vaqtiga munosabatini belgilashda harakat-holat vaqti(H), nuqt vaqti(N) va ishora vaqti(I) kabi uch nuqta e'tiborga olinadi. Bunda nuqt momenti, harakat-holat vaqti va ishora vaqti orasidagi bir vaqtga teng kelish, oldin-keyinlik, tarkibiga kirish kabilar temporal munosabatlarni sifatida gapning zamonini belgilashda asosiy rol o'ynaydi. Korpus lingvistikasida zamon shakllarni modelashtirishda ham mana shu uch nuqta asosga olinadi.

2. O'zbek tilshunosligida zamoni ifodalovchi grammatik shakllar va ularning tasnifi eng muvazarlil masalalardan biri bo'lib kelgan. Qaysi grammatik shakllar zamon kategoriyasiga tegishli ekanligi va ularning tasnifi borasida bir to'xtamga kelinmagan. Mazkur ishda NJH uchligi asosida zamon shakllari tizimlashtirildi va o'lgan zamonga 4 xil strukturaga ega bo'lgan 11 ta grammatik shakl, hozirgi zamonga 2 xil strukturaga ega bo'lgan 11 ta grammatik shakl, kelasi zamonga 3 xil strukturaga ega bo'lgan 5 ta grammatik shakl mansubligi qayd etildi.

3. Ko'plab tasniflarda ajratilgan hozirgi-kelasi zamon tushunchasi bahasi bo'lib, obyektiv zamonda bo'lgani kabi tilda ham uch zamon: o'lgan, hozirgi va kelasi zamon ajratildi. Chunki bir grammatik shakl muayyan bir qo'llanishda faqat bir zamonga ishora qiladi, ya'ni bir voqelashda ham hozirgi, ham kelasi zamon ma'nosini anglatmaydi -a, (-y) shakli nuqt momenti ham amalda bo'lib turgan

¹⁰ Xudobekova M. 525 ta turlicha kuni mavjud bo'lgan *Erta* so'zi yigirmen kuni manasini qayta ifodalaydigan bo'lishi (amaliy) asos. -Ergamon, 2001. -s. 76.

faoliyat va holatlarni, odatiy takrorlanuvchi harakat-holatlarni, predmetlarning doimiy belgisini, o'zgarmas baqiyatlarini ifodalaganda umumiy hozirgi zamon shakli sifatida qaralishi lozim. Bu shakl nuqt momenti emas, balki undan keyin yuzaga keladigan harakat va holatlarni ifodalaganda kelasi zamon shakli sifatida baholinishi lozim.

4. Korpus matnlaridan zamoni annotatsiyalash uch xil darajada amaliy oshiriladi.

1. Grammatik daraja. Bunda matn tarkibidagi zamonga ishora qiluvchi grammatik shaklining ishonch ma'nosida asosida gapning qaysi zamonga oidligi belgilanadi.

2. Sementik daraja. Bunda grammatik shakl qo'shilayotgan asosning lektsiy ma'nosining zamon ma'nosini ifodalashiga ta'sir hisobga olinadi.

3. Kontekstual daraja. Eng murakkab daraja bo'lib, grammatik shaklning qaysi zamoni anglatayotgani haqida nuqt qurshovdan kelib chiqib xilosa chiqariladi.

5. Fe'l lektsiy ma'nosining zamon ma'nosini ifodalashiga ta'sirini o'rganish hamma fe'l ham hamma zamon shakllarini birdek qabul qila olmaydi, shuningdek, ayrim fe'l larning grammatik shakllar bilan muayyan zamon ma'nosini voqelantirishi yoki voqelantira olmaydigi bilan bog'liq jarayonlarni tushuntiradi. Fe'l sementikasining zamonga munosabatida, xususan, ko'p ma'noli fe'l larning ayrim ma'nolarining zamonga munosabatida o'ziga xosliklar mavjud. Bu o'ziga xoslik davomli zamon grammatik shakllarini qabul qilish/qilmastik, -a (-y) shakli bilan hozirgi yoki kelasi zamoni ifodalash jihatlardan muhim ahmiyatga ega.

6. Bir lahzalik, harakat-holatning oxirgi natijasini ifodalovchi fe'l lardagi "bir lahzalik" ma'nosini davomiylikka zid keladi. Shu sababli bunday fe'l larda davomli zamon shakllari bilan qo'llanmaydi. Davomiylikni ifodalovchi holat fe'l lari esa sementikasida "davomiylik" ma'nosini bildirgi sababli davomli zamon grammatik shakllarini qabul qilmaydi. Statik holat ma'nosini ifodalovchi fe'l larda -a (-y) shakli bilan asosan hozirgi zamoni ifodalasa, jismoniy harakatlarni ifodalovchi fe'l larda bu shakl bilan asosan kelasi zamoni anglatadi.

7. Ta'limiy korpus matnlaridagi zamon shakllarining ochrash chastotasi tahliil bu grammatik shakllarning tilda qo'llanilish darajasi bir xil ekanligini ko'rsatadi. Ayrim shakllar barcha nuqt ulublari doirasida, shuningdek, ham og'zaki, ham yozma nuqt shakllarida keng iste'molda bo'lgani holda, ba'zi shakllar faqat muayyan bir ulub, bir nuqt shakli doirasidagina qo'llaniladi. Ba'zilari esa tobora tarixiylashib bormoqda. Bu jarayonlarni kuzatishda va solis baholashda grammatik shakllarning matnlarda uchralishini statistik tekshirish imkoniyatini beruvchi til korpuslarining ahmiyati juda katta. Tekshirish natijalaridan til ta'limida ham foydalanish ijobiy samara beradi.

8. O'zbek tilda bir zamonga mansub grammatik shaklning kontekst ta'sirida boshqa zamoni ifodalashi ancha keng tarqalgan hodisa hisoblanadi, lekin avtomatik annotatsiyalashda dastur grammatik shaklini qoidaga ko'ra tasnifda berilgan zamon ma'nosini bilan izoblaydi. Natijada annotatsiyada xatolik kuzatiladi. Zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning korpus matnlarida anglatgan turli ma'nosini statistik o'rganish va ta'vifdan o'rganish natijalariga tayanish shakl haqida nisbatan ishonchli ma'lumot beradi. Tahliil zamonalarning ko'chishi bilan bog'liq

